UO‘K 94(575.1)

TURKISTON O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASINING IQTISODIY SIYOSATI

Qurbonova Nargiz Nasirdinbekovna,
University of Economics and Pedagogy “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dosenti, tarix fanlari nomzodi
e-mail:kurbanovanargiza@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20428120

Annotatsiya. *Maqolada Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati va uning mustamlakachilikka asoslanganligi ilmiy adabiyotlar ma’limotlari va birlamchi manbalar yordamida tadqiq qilingan.*
Kalit so‘zlar: *Turkiston o‘lkasi, Rossiya imperiyasi, iqtisodiy siyosat, mustamlakachilik, metropoliya sanoati.*

Аннотация. *В статье исследуется экономическая политика Российской империи на территории Туркестанском крае и ее колониализм на основе научных литературных источников и первоисточников.*
Ключевые слова: *Туркестанский край, Российская империя, экономическая политика, колониализм, промышленность метрополии.*

Abstract. *The article examines the economic policy of the Russian Empire in the territory of the Turkestan region and its colonialism based on scientific literary sources and primary sources.*
Keywords: *Turkestan region, Russian Empire, economic policy, colonialism, metropolitan industry.*

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiyaning hukmron doiralari mamlakatda rivojlanayotgan kapitalistik iqtisodiyotning ehtiyojlarini Yevropadagi vaziyatga bog‘liq bo‘lmagan holda qulay va unumli ta’minlashni bosh vazifalardan biri hisoblashdi. Shu munosabat bilan o‘zining uzoqqa mo‘ljallangan strategik maqsadlaridan voz kechmagan holda imperiya hukumati, birinchi navbatda, metropoliya sanoatini qishloq xo‘jalik xom ashyosi va boshqa mahsulotlar bilan yangi mustamlaka hisobidan ta'minlash amaliyotini keng avj oldirdi. Bu borada Turkiston o‘lkasiga rus qo‘shinlari va yarim harbiy kazaklar bilan birga yana bir tayanch barpo qilish uchun nasroniy aholini ko‘chirib, imtiyozli sharoitlar yaratish va joylashtirish siyosati o‘tkazildi.

Adabiyotlar tahlili. Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati bir qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. N. A. Abdurahimova imperiyaning iqtisodiy siyosati mustamlakachilik xususiyatiga ega bo‘lib, metropoliya manfaatlariga xizmat qilganini ta’kidlaydi. N. Musayev Turkistonda sanoat va paxtachilikning shakllanishini yoritib, iqtisodiyotning biryoqlama xom ashyo yo‘nalishida rivojlanganini ko‘rsatadi. A. V. Pyaskovskiy esa iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. A. M. Aminov O‘rta Osiyoning kolonial davrdagi iqtisodiy rivojlanishini

tahlil qilib, Rossiya siyosati asosan xom ashyo bazasini shakllantirishga qaratilganini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi iqtisodiy siyosatini o‘rganishda qiyosiy-tarixiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy yondashuv sifatida tarixiylik prinsipi tanlanib, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi iqtisodiy jarayonlar o‘z davri kontekstida yoritildi.

Shuningdek, deskriptiv (tasviriy) va analitik metodlar orqali birlamchi manbalar hamda ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlar esa miqdoriy o‘zgarishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun qo‘llanildi. Tadqiqotda sotsiologik va iqtisodiy yondashuvlar uyg‘unlashtirilib, mustamlakachilik siyosatining mahalliy iqtisodiyotga ta’siri kompleks tarzda baholandi.

Tahlillar va natijalar. Rossiya imperiyasi, mustamlakachi idoralar Turkistondagi iqtisodiy siyosatni va u bilan bog‘liq barcha choralarni, birinchi navbatda, paxtachilikni rivojlantirishga qaratishdi. Rossiyaning yirik sanoatchilari bundan juda manfaatdor bo‘lgani uchun mablag‘lar ham, tashkilotchilar ham topilishi aniq edi. Metropoliyaning arzon va nisbatan yaqin paxtachilik bazasiga ega bo‘lishi Rossiyada to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga, Amerikadan paxtani tashib keltirishda sarf bo‘ladigan moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilishi tayin edi. Shu omillarni nazarda tutgan holda K.P.Kaufman boshchiligida 1873-yili ishlab chiqilgan yer haqidagi Nizomda faqat qonuniy hujjatlari bo‘lgan kishilargina o‘zlariga tegishli yerlarni xususiy mulk qilib olishlari ko‘zda tutildi. Loyihaning 313-bo‘limida istiqomat qilayotgan yerlarida doimiy yashash huquqi yangi binolar qurilishiga, yangi rus qishloqlari uchun ariqlar ochishga zarur bo‘lgan hollarda bekor qilinishi belgilab qo‘yildi.[1] Bu vaqtda mahalliy aholining asosiy qismida bunday hujjatlar yo‘q bo‘lib, ularning borligini tasdiqlash mustamlakachi ma'murlarning ixtiyorida edi, bu hol esa yerlarni osonlik bilan tortib olishga imkon berar edi.[2]

Ayni paytda, 1892-yildagi qurg‘oqchilik, 1905-yildagi g‘alayonlardan so‘ng Rossiyaning Yevropa qismidan O‘rta Osiyoga ko‘chib keluvchilar soni ortib bordi, hatto rus dehqonlari o‘rtasida ham o‘ziga to‘q, o‘rtahol dehqonlar paydo bo‘la boshladi.[3] Masalan, birgina Qo‘qon shahrini kengaytirish bahonasi bilan mahalliy aholidan 100 000 sarjin yer tortib olingan. Yangi Marg‘ilon (Farg‘ona) shahrini qurish uchun dehqonlardan bir necha ming desyatina tortib olingan.[4]

Oqibatda, o‘lkaning tub aholisidan yerlarning aksariyat qismi ma’muriy choralar bilan tortib olinib, davlat (g‘azna) mulkiga aylantirildi. XIX asrning 70-80-yillarida o‘troq va ko‘chmanchi aholining foydalanishida bo‘lgan yaylovlarning bir qismi hokimiyat tomonidan musodara qilindi hamda ko‘chib kelayotgan rus aholisi tomonidan o‘zlashtirilib olindi. Farg‘ona vodiysi bosib olinganidan keyin Rossiya imperiyasi o‘lkada paxtachilikni

yuksaltirish amaliyotiga bir qancha o‘zgartirishlarni kiritdi. Xususan, 1864-1878-yillarda Rossiya imperiyasining tarkibiy qismi hisoblangan Turkistondan keltirilayotgan paxta tolasiga boj to‘lovlari joriy etilmagan edi. 1879-yilda bunday to‘lovlar rasmiylashtirildi va 1886 yilgacha paxtaning bir puti uchun 40-45 tiyin boj to‘lovi olingan bo‘lsa, 1887 yilda bunday to‘lov 1 rubl 15 tiyinga yetdi, 1903-yilda esa 4 rublgacha ko‘tarildi.[5] Bunday choralar va Turkistonda yetishtirilgan paxtaning adolatsiz past narxlarda xarid qilinishi Rossiya to‘qimachilik sanoatini ancha arzon xom ashyo bilan ta'minlash imkoniyatini berar edi. Buning oqibatida Turkistonning boshqa viloyatlariga qaraganda Farg‘ona viloyatining tub aholisiga juda ko‘p qiyinchiliklar tug‘ilishi aniq edi, chunki ayni shu viloyatda paxta, pilla yetishtirishni ko‘paytirish istiqboli kengroq bo‘lgan. Ushbu maqsadga erishishda mustamlakachi hokimiyat rus sarmoyadorlarini jalb etishga harakat qilgan, o‘z navbatida, ular ham Turkistonda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jalik xom ashyosini xarid qilish va qayta ishlashdan manfaatdor edilar.

Asosiy gap Rossiyaning o‘lkada hukmron bo‘lganidagina emas, balki Turkiston paxtasiga ega bo‘lish orqali kamroq xarajat qilib, ko‘proq daromad olinishida edi. Amerika paxtasining 1 puti 6 rubl turar edi, Turkiston paxtasining 1 puti 3,5 rubldan 5 rublgacha bo‘lgan.[6] Oqibatda, sug‘oriladigan yerlardan boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari, birinchi navbatda, donli ekinlar siqib chiqarila boshlandi. Bu holat Farg‘ona viloyatida quyidagicha bo‘ldi:

Farg‘ona viloyatida ekilgan qishloq xo‘jalik ekinlari[7]

№	Qishloq xo‘jalik ekinlari	1885-y. foiz hisobida	1905-y. foiz hisobida	1915 -y. foiz hisobida
1	**Paxta**	14	17	44
2	**Don**	26	47	27
3	**Jo‘xori**	22	16	11
4	**Sholi**	16	8	7
5	**Beda**	15	8	8
6	**Boshqalar**	7	4	3

Turkistondagi yer-suv munosabatlarini mustamlakachilik rejalariga ko‘ra o‘zgartirishda yo‘l qo‘yilgan zo‘ravonlik, jiddiy xatolar oqibatida bir qancha yillar mobaynida dehqonchilik inqiroz holatida bo‘lgan. Rossiya imperiyasining rasmiy ma'lumotlariga ko‘ra, Turkistonda, ayniqsa, Farg‘ona viloyatida paxta yetishtirish hajmi ancha kamayib ketdi. Masalan, 1878-yilda bu viloyatda barcha sug‘oriladigan yerlarning 10 foizini paxta ekinlari tashkil etgan, biroq paxtachilik dehqonchilik bergan sof foydaning 5-7 foizini bergan. XIX asrning 70-yillari boshlarida Farg‘ona vodiysidan Rossiyaga 300 ming put

paxta tolasi olib ketilgan bo‘lsa, 80-yillarning boshlarida bu ko‘rsatkich deyarli 20 ming putga teng bo‘ldi, ya'ni 15 barobar kamaydi.[8] Paxtaga e'tiborning ortib borishi natijasida esa keyinchalik Turkiston viloyatida terib olingan paxtaning 60 foizi Farg‘ona viloyatida yetishtirildi.[9] Ahvolni yaxshilash va o‘lkada paxtachilikni, pillachilikni o‘z qo‘liga olish uchun Rossiya kapitalistlari, savdogarlari bu yerda banklar, firmalar, birlashmalar tashkil etishga, paxtani tozalash, yog‘-moy zavodlarini qurishga kirishishdi. Ular bilan birga bu jarayonda aka-uka Vadyayevlar, Yu.Davidov, Ye.Simxayev, R.Potelyaxov va kamchilikni tashkil etuvchi mahalliy tadbirkorlar ham qatnashdi. Davlatdan va tub aholidan paxtachilikka qulay hamda sug‘orishga yaroqli yerlarni sotib olish XIX asrning 80-90-yillarida avj oldi. Keyinroq 1903-1910-yillarda Turkistonning tub aholisidan «ortiqcha» yerlarni tortib olish choralari o‘tkazildi va bu yerlar ham ko‘chib kelayotgan nasroniy aholiga bo‘lib berildi hamda qishloq xo‘jaligiga daxldor rossiyalik sarmoyadorlarga sotildi. O‘lkada ayni paxtachilik, pillachilik bilan shug‘ullangan va juda katta yer egalariga aylangan «Aka-uka Kudrinlar va Ko», «Katta Yaroslavl manufakturasi», Andreev firmasi, «Besh Bosh» firmasi, Vladimir Alekseevning korxonasi faol ishlashgan.[10] Bu tijorat firmalari, birlashmalari bilan Rossiyaning Poltava, Samara, Nijegorod, Moskvadagi banklari hamkorlik qilgan va o‘lkada qishloq xo‘jalik xom ashyosini ishlab chiqarishni ko‘paytirish, metropoliyada qayta ishlab, Turkistonga tayyor mahsulot sifatida keltirish masalalariga katta e'tibor berishgan. Banklarning o‘zi ham mahalliy dehqonlarga foizli qarz berish va qarzni o‘z muddatida qaytarmaganlarning yerini garov hisobiga olib, tadbirkorlarga sotish yo‘li bilan boyligini orttirar edi.

Bunday uslublarni Davlat bankining bo‘linmalari ham keng qo‘llagan. Ular xususiy banklarga, paxtachilik firmalariga yiliga 5,5 foiz ustama sharti bilan kredit berishar edi.[11] O‘z navbatida, xususiy banklar ustama haqini 12 foizga ko‘tarib, turli firmalarga, uyushmalarga, paxtani ulgurji olib-sotish bilan shug‘ullanadigan tijorat tashkilotlariga kredit bergan. Ayni shular dehqonlar bilan muloqotda bo‘lishgan hamda vaziyatga, mavsumga qarab va dehqonlar pulga qanchalik muhtoj ekanligini hisobga olib, ularga 40-60 foizli, aksariyat hollarda esa hatto 100-150 foizli ustama bilan qarzga mablag‘ berishgan.[12] Bo‘lajak paxta hosilini garovga olib, dehqonlarga qarz berish ham keng tarqalgan edi. Qiyin ahvoldagi dehqon chigit ekish oldidan yoki g‘o‘zani parvarishlash paytida xususiy banklardan, tijorat, savdo-sotiq firmalaridan bo‘lajak paxtaning har bir puti hisobidan 1-1,5 rubl olar edi. Farg‘ona viloyatida shunday shartlar asosida dehqonlar olgan qarzlar har yili 32-35 mln. rublni tashkil etgan.[13] Bunday shartlarni bajara olmay, yetishtirgan paxta hosilidan mahrum bo‘lgan va oilasi bilan qashshoqlikka botgan dehqonlar yil sayin ko‘payib borgan hamda mardikorlar qatorini to‘ldirgan.

Turkistonning deyarli barcha paxtachilik rivojlangan mintaqalarida, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida sudxo‘rlar, qistachilar, boylar tashabbusi bilan dehqonlarga zarur oziq-

ovqat mahsulotlarini, matolarni, poyabzallarni bo‘lajak paxta hosilining hisobiga xarid narxlaridan yuqori baholarda sotish joriy qilindi. Sudxo‘rlar, boylar muhtojlikka tushib qolgan dehqonlarga qarz sifatida aslida arzon mollarni ulgurji narxlarda baholab, bo‘lajak paxta hosilining hisobiga sotishar edi. Hosil yig‘im-terimini kutib turgan soliq yig‘uvchilar, sudxo‘rlar uni bo‘lib olishganidan keyin dehqonlar ko‘pincha hokimiyat yoki boylar, sudxo‘rlarga yana qarzdor bo‘lib qolishar edi. Bunday vaziyatdan ayrim mahalliy boylar ustalik bilan foydalanishgan: g‘aznadan sug‘oriladigan 5–10 desyatina yerni ijaraga olib, o‘zlari unda hech qanday mehnat qilmasdan, bir nechta bo‘laklarga bo‘lib, yersiz yoki yeri kam dehqonlarga chorakorlik shartlari bilan bergan. Bunday amaliyot o‘lkaning hamma paxtachilik hududlarida kuzatilgan, lekin Farg‘ona viloyatida juda keng qo‘llanilgan va birlamchi ijarachilarga katta daromad keltirgan. Asosiy og‘irlik yerni ulardan ijaraga olgan chorakorlarning yelkasiga tushgan.

Xulosa. Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi iqtisodiy siyosati asosan metropoliya manfaatlariga xizmat qilgan mustamlakachilik xarakteriga ega bo‘lgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘lkada amalga oshirilgan agrar islohotlar va yer-suv siyosati mahalliy aholining yerlaridan mahrum bo‘lishiga hamda iqtisodiyotning biryoqlama xom ashyo yo‘nalishida rivojlanishiga olib kelgan. Xususan, paxtachilikni kengaytirishga qaratilgan siyosat natijasida donli ekinlar qisqarib, iqtisodiy tarkib buzilgan. Shu bilan birga, soliq va kredit tizimidagi og‘ir shartlar dehqonlarning iqtisodiy qaramligini kuchaytirib, ijtimoiy tabaqalanish va qashshoqlikning ortishiga sabab bo‘lgan. Umuman olganda, Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati Turkistonning tabiiy va inson resurslarini metropoliya sanoati foydasiga yo‘naltirgan holda, mintaqaning mustaqil iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklab qo‘ygan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахимова Н. А. Становление и особенности экономической политики России в Туркестане во второй половине XIX - начале XX вв. // Историческое пространство. Проблемы истории стран СНГ. – М.: Наука, 2008. №1-4. – С. 63.
2. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми - XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б. 9.
3. Пясковский А.В. Революция 1905-1907 годов в Туркестане. – М.: АН СССР, 1958. – С. 33.
4. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми - XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б. 9.
5. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – Ташкент: Госиздат УзССР, 1959. – С. 126.
6. O‘z MA. I-14-fond, 28-ro‘yxat, 21-varaq.
7. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми - XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б. 22.
8. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября. – С. 28.
9. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми - XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б. 22.
10. История Узбекской ССР. Т. II. – С. 58; Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. – С. 28.

11. Кривошеин А.В. Записки главноуправляющего землеустройством и земледелием о поездке в Туркестанский край в 1912 г. — Полтава, 1912. – С. 18.
12. Касымбеков К.Ф. Из истории народных движений в Фергане в конце XIX - начале XX века. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 23.
13. O‘z MA. I-19-fond, 1-ro‘yxati, 320-ish, 1-2-varaqlar.